

“LOLAZOR” ASARINING G‘OYAVIY-BADIIY TAHLILI.

Ruzmuratova Durdona Elmurodovna

Samarqand davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Murod Muhammad Do‘st qalamiga mansub ushbu asarda o‘z davrining tipik muommolari va insonlari kitobxonga o‘ziga xos tarzda ochib berilgan bo‘lib, roman bevosita “Turg‘unlik davri”ga ko‘zgu tutadi. Asarda talqin qilingan Tuzum inqirozi, qahramonlar tabiati va qismati, asar ruhiyati va personajlari o‘rtasidagi konflikt-ziddiyat sizni turli keskin burilishlarga, og‘ir o‘y-xayollarga, chuqur tafakkur qilishga va o‘zgacha hissiyotlarni tuyishga undashi aniq... Quyidagi kontekstual tahlil natijasida esa romandagi obrazlar tizimi, muallif g‘oyasi va asarning jamiyat hayotini aks ettirishdagi badiiy va g‘oyaviy ahamiyati imkon qadar ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Obrazlar tizimi, “Lolazor” romani, T.Boboyev, retrospektiv syujet, muqaddima, Nazar Yaxshiboyev, qissanavis, satirik pafos, Oshno, lolazor, ramziy obrazlar.

Murod Muhammad Do‘st dastlabki ijod yo‘lini 1976-yilda “Qaydasan, quvonch sadosi?” nomli hikoyalar to‘plami bilan boshlagan bo‘lib, hatto asar muhokamasi bo‘yicha adabiy anjuman o‘tkaziladi va ko‘plab mashhur yozuvchi va munaqqidlar e‘tirofiga erishadi. Anjumanda adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov ham nutq so‘zlagan bo‘lib va asarga quyidagicha munosabat bildirgan: “G‘arbning mashhur kishilari haqida g‘arblik ijodkorlar qoyilmaqom qilib yozishgan. Murodning hikoyasi o‘sha asarlar bilan bo‘ylasha oladigan darajada. Bu – yaxshi. Endi ukamiz o‘z odamlarimiz haqida yozib, ularni G‘arb, balki, jahonga tanitish yo‘lidan borsa, yana ham savobroq ish qilgan bo‘lardi...”

1988-yilda yozilgan “Lolazor” romani turg‘unlik yillarining ma‘naviy, iqtisodiy va siyosiy inqirozi haqida hikoya qilib, asardagi turli qahramonlar va personajlar xarakteri va xatti-harakatlari orqali mahorat bilan ochib beriladi. Quyida esa “Lolazor” romani adabiyotshunoslar A.Rahimov va T.Boboyevning qarashlari asosida adabiy tahlil qilinadi.

Roman tuzilishi jihatdan retrospektiv syujetga asoslangan bo‘lib, asarning prologdan boshlanib, epilogga qadar bo‘lgan voqealarida syujet qurilish unsurlarining odatdan boshqacha, adabiy standart hisoblangan “3 aktli struktura” dan butunlay farq qilishini yaqqol sezamiz. Asar tilining “Bemor” (Nazar Yaxshiboyev) va “Qissanavis” (Saidqul Mardonov) tomonidan hikoya qilinishi polifonik uslubni aks ettirgan holda, voqealar rivoji asosan 3 qahramon: Nazar Yaxshiboyev, Oshno (Horun Kalonov) va Saidqul Mardonovlarning hayotida bo‘lib o‘tgan voqealar atrofida aylanadi. Mutolaaga kirishishingiz bilan muqaddima(prolog)ning o‘ziyoq e‘tiboringizni torta oladi:

“Osmon mezonlardan yiltirar edi. Yigirma yil avval edi, kuz edi, yer-u osmon tinch edi. Va havoda o‘rgimchak iplari ohista suzardiki, Nazar Yaxshiboyevning xayoliga ayni chiroyli o‘y keldi. Kelgani barobar dilga joyladi – go‘yo ro‘molcha uchini tugun qilib tugdi. Keyin do‘stlariga gapirib yurdiki, e birodarlar, Bulduruqqa borib g‘aroyib manzara ko‘rdim, shu desangiz, tiniq kuz osmoni mezonlardan yiltirab yotardi. Do‘stlar aslida u qadar do‘st emasdi, Yaxshiboyevdan qo‘rqishardi, xolos...” [1:5]

Muqaddima o‘rnida Yaxshiboyev haqida ba’zi ma’lumotlar keltiriladiki, o‘quvchi u haqida, uning martabasi haqida, atrofidagi g‘ujgon aylanadigan “gubalaklar” haqida va Oshno deb atalmish noma’lum bir shaxs haqida bilmasdan, o‘zini noaniq fikrlar girdobida yurgandek his qilishi tayin! Ilk bob “Bemor” bilan boshlanadi: yana tushunarsizliklar sizni qurshab oladi, Yaxshiboyevning o‘y-xayollari va o‘tmish bilan bog‘liq voqealari, ketma-ket qahramonlar yuzasidan aytiladigan xulosalar va ikkilanishlar... Bu konfliktlar esa mutolaa davomida birdaniga o‘z yechimini topmaydi. Ba’zilariga Yaxshiboyevning aynan o‘zi orqali, qolganlariga esa Saidqul Mardonovlarning hikoyasi va manzaralari asosida kitobxonning o‘zi yechim axtarishga majbur bo‘ladi! Siz asarning oxirigacha “tugun” ni yechishga intilasiz va bunga Nazar Yaxshiboyev orqali erishasiz ham...

Aslida, hammasi nimadan boshlangan edi?!

“Nazar Yaxshiboyev Bulduruqning pastrog‘ida – cho‘pon kulbasida tug‘ilgan edi, Oshno – teparoqda, buloq poyidagi bog‘li-rog‘li hovlida. Inqilob-u sho‘rolar sharofati bilan, ikkisi ham maktabga borishdi, yaxshi odamlarning qo‘lida o‘qishdi, avval yetti yillikni tugatishdi, keyin, baxtlari chopib – qishloq sho‘rosining raisi Hotamboy viloyat

markaziga borib, janjal-u to'polon bilan o'rta maktab va beshta no'g'oy muallima undirib kelgach – o'ninchini ham tugatib olishdi. Hotam Sho'ro taraqqiyot va islohot qo'li edi... "Hotam Sho'roning bir orzusi bor ediki, maktabni bitirgan ikki yigitni shaharga o'qishga yubormoqchi edi, balki ular kelajakda "Bulduruq nomini butun yurtga yoysa, ne ajab?". Qur'a tashlagandi, tashlagan qur'asi Yaxshiboy cho'ponning o'g'li Nazar bilan Kalonqul bo'yoqchining o'g'li Xorunga tushdi. Bormaymiz, yo'q, deb turib olishdi, onalari yig'ladilar, rais qat'iy aytdiki, taraqqiyot yo'lida zo'ravonlik qilishga majburman, deb. Ular shaharga ketadigan kun Hotam Sho'ro miting o'tkazdi, nutq so'zladi va keyin rais to'g'ri O'rtaqo'rg'on tomonni ko'rsatdi "ikki yigit esa, yelkalarida non-u namak solingan ikkita to'rva, onalari-yu qarindosh xotin-xalajni sel yig'latib, Hotam Sho'ro ko'rsatgan yoqqa shaxdam qadam tashlab ketdilar". [1:9] Aynan shu voqeadan keyingi hodisalar tafsiloti bizga asar qahramonlarini, ularning xarakter xususiyatlarini va obrazlilikini to'laroq ochib borishimizga zamin yaratadi. Aynan Nazar Yaxshiboyev obrazi ochilishi kitobxon uchun shu yerdan boshlanmadimikan? Muqaddimadayoq bizga qisman tanish bo'lgan "bemor" Nazar Yaxshiboyev obrazi hozirga qadar qay tarzda shakllanib kelgan?

Adabiyotshunos To'xta Boboyev obraz yaratish borasida, uning xususiyatlari to'g'risida o'z asarida kengroq yoritgan bo'lib shunday bir fikrni ham keltirib o'tadi: "San'at va adabiyotda hayot obrazlar vositasida aks ettiriladi. San'atkor hayotni kuzatadi, kuzatgan voqealarini tafakkuridan o'tkazadi, ularni qayta ishlab yana jonli hayot shaklida yaratadi. Hayot voqea-hodisalarini qayta tiklashda inson obrazi g'oyatda muhim ahamiyatga ega. G'oyaviy-badiiy yetuk asarlardagi kishilar obrazi orqali biz muayyan bir davr hayoti haqida keng va konkret ma'lumot olamiz." [5:1] Aynan shu fikrlar quyidagi Yaxshiboyev obrazini tahlil qilishda biz uchun yetarlicha asos vazifasini bajara oladi, chunki yuqorida aytganimizdek, ushbu roman o'z davrining yorqin ko'zgusidir!

Qissanavis so'zi bilan qahramon taqdirini qisqa ko'rib chiqishda davom etadigan bo'lsak, Yaxshiboyev bilan Oshno mahallani tark etgach Jonuzoq karvonning karvoni orqali shahargacha yetib olishadi va amallab studentlik maqomiga ham erishishadi. Biz bu ikkalasining tegishli barcha o'tmishini aynan Qissanavis nomidan, yani Saidqul Mardonovning hikoyalari bilangina xabardor bo'lishimiz ham ahamiyatlidir. Keyingi

voqealar rivojidan e'tiborni qaratadigan muhim nuqta bu ularning ro'zg'oridagi yo'qchiliklar va ro'zg'or yukini gardaniga olgan Nazar Yaxshiboyevning keyinchalik egrilik (ya'ni o'g'irlik) tarafga o'tib ketishi... Oshnoning bundan xabar topishi va o'rtadagi o'sha diaologlar aynan bizga ularning xarakterini ochib berish uchun yetarli bo'ladi deb o'ylayman. Bir qarashda o'quvchi shu suhbatdan keyin balki to oxirigacha Nazar Yaxshiboyevni qo'pol, to'pori, qaysar, yani yomon degan, Oshnoni esa sodda, zaif va jo'n biroz aqlli deb do'stiga nisbatan ko'proq ijobiy personaj sifatida baholaydi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, asarning satirik pafosda ifodalanganligi barchasining aslida teskari ekanini ko'rsatadi, Oshnoning zaifligi va jo'nligi aslida Yaxshiboyevni to oxirigacha ham uni boshqarish uchun xizmat qilmadimikan?!

Yaxshiboyev Oshno tufayli yana to'g'ri yo'lga qaytadi, biroz muddat o'tib Oshnoning maqolasi chiqib yaxshigina haq oladi, vaholanki, Yaxshiboyev ham talonchilikni qilib emas, biroz aqlini ishlatib oshnasi kabi halol yo'lni tutsa ham bo'lardi. Bu ikki do'st o'rtasidagi tafovutlar shu qadar ko'pki, aslida, asar davomida bu "do'stlik" saqlanib qolganiga ham shubha bilan qarash mumkin. Oshnoning "o'tib ketgani" (ya'ni Yaxshiboyevning vasiyligi tugagani) dan Yaxshiboyevning o'jarligi tutadi-yu, "bunaqasi meniyan qo'limdan keladi!" degan fikr yarq etib xayolidan o'tadi. Aytganini qilmay qo'ymaydi – O'rtaqo'rg'on gazetasida kichik bir sarlavha bostiradi. Ular o'rtasidagi yana bir muhim munosabatga Qissanavisning o'zi shunday izoh keltirgan: "Yaxshiboyev dastlabki paytlarda Oshnoga vasiylik qilgani bor gap. Lekin uning vasiyligi, binobarin, do'stidan ustunligi O'rtaqo'rg'on ro'znomasi muharririning uyiga Oshnoni boshlab borgani-yu muddat o'tib uni muharrirning noziknihol jiyani Muyassarga uylantirib qo'ygani bilan tugaydi". O'rtadagi muharrirning ta'siri shunda bo'ladiki, u urushning dastlabki kunlaridayoq urushga jo'nab, Stalingrad ostonasida halok bo'ladi, bu paytda Oshno esa yaralanib gospitalda uzoq davolangach, O'rtaqo'rg'onga qaytib keladi. Uning rejasi xotini bilan Bulduruqqa qaytish edi, ammo shahar ma'murlari uni vafot etgan muharrirning o'rniga tayinlashadi, shundagina Oshno qarindoshidan faqatgina hovli-joyi va mansabini emas, balki kattakon obro'sini ham merosga olganini tushunadi... Qirq oltinchi yilda Yaxshiboyev ham frontdan qaytadi, uni vokzalda tasodif tufayli Oshnoning

o‘zi kutib oladi. Yaxshiboyev Bulduruqqa qaytib o‘sha yerda bir muddat qoladi, ammo tez orada Oshning taklifi bilan yana uni yoniga qaytadi, Muyassar xonimning yaqin dugonasi Muhsina xonimga uylanadi va shu bilan go‘yo Oshnoga ham qaramlik boshlanadi, Oshno yuksalgandan yuksalib boradi, Yaxshiboyev ham uning soyasi zahirida nadir obro‘ga ega – qisqa qilib aytganda, ikkisinining davri kelgandi!

Yaxshiboyevning armonlaridan, iztirob va tahlikalaridan uning o‘zidan ham, Oshning yurt boshqaruvidan ham umuman qoniqmaganini anglash mumkin. To‘g‘ri, ikkisinining dilida ham ezgu niyatlar ko‘p edi-yu, Oshno yuqoridagilarning ta‘siri ostida, Yaxshiboyev esa biroz mansab va obro‘ga o‘chlik ostida bu niyatlarini unutib qo‘ydilar. Lekin Yaxshiboyev unutib yubordi desak, meningcha xato bo‘ladi, u har vaqt bularni dilida saqladi, tiliga chiqarganda esa bu Oshnoga yoqmadi, keyin Yaxshiboyev ortiq bundan gap ochishga qo‘rqdi. Yaxshiboyevning real fikrlaridan qati o‘laroq, Oshning so‘zlari ko‘proq idealistlarga xos edi, chunki birgina Bulduruq dashtiga suv chiqarish borasida Yaxshiboyevning so‘zlariga bahonalar to‘qirdi-yu, o‘zini butun yurtni “lolazor” ga aylantira olishiga qattiq ishonardi.

Yaxshiboyev qo‘lidan hech narsa kelmaydigan hech kimligini juda yaxshi bilardi, chunki u katta marotabali insonning eng yaqini do‘sti, unga gap tekkizishi, ortiqcha gap bo‘lishi mumkin emas. Yaxshiboyev o‘zi xohlagan hech bir narsaga erisholmadi: na Hotam Sho‘roga bergan va‘dasi ustida turoladi, na sevgan ayoli Oliyaga yetoldi... Uning o‘zi takidlaganidek: “Yaxshiboyev kim o‘zi, kim bo‘pti u? Oshning saltanati tug‘dirgan bir mujmal hodisada buyam! Yoki boshqachami? Formulasi nima uning? Formulasi ne bo‘lmasin, tarkibiga Oshnodan salgina aralashgani aniq. Kimki nufuzli kimsa bor, uning vujudiga Oshno aralashgan, Oshno – havo, Oshno – yer, Oshno – suv, Oshno – non... Oshno – hamma narsa...”

So‘nggida Yaxshiboyevdan faqatgina Bulduruqda joylashgan kattagina bog‘ qoldi, bunga ham Saidqul Mardonovning xizmati orqali erishdi, ammo ulgurdi, epladi!

Oshning saltanati esa o‘zi o‘ylab topgan to‘qimalardan quladi, vayron bo‘ldi, Oshnodan yurt “lolazor” ga emas, aksinchaga aylandi... Muallif asarda sobiq tuzumning inson ma‘naviyatiga ta‘siri, vijdon va manfaat o‘rtasidagi kurash, insonning o‘zligini

anglashi kabi asarning umumma'nosini bir tarafdin, Yaxshiboyevning o'z monologlarida, umidlari va xatolari, o'tmishi orqali aks ettirsa, ikkinchi tarafdin g'aroyib tabiatli To'pori, ters, ammo mard, samimiy yigit Abdujabbor, indamas, olijanob ayol Oliya, badantarbiyachi ayol Anbar, Simxo, Robiya, Qurbonoy, Sharif, Vallomat, Aleksandr Shoyimardonovich, Moyra, Muyassarxon kabi yana o'nlab personajlardan foydalanadi.

Ushbu asar inson va jamiyat munosabatlarini teran falsafiy hamda psixologik talqin etgan yirik romandir. Roman syujeti, murakkab kompozitsiyasi, chuqur psixologik tahlili va ramziy obrazlari orqali o'quvchini ma'naviy mushohadaga chorlaydi. Yozuvchi bir inson taqdirini tasvirlash orqali butun bir davrning ruhiy qiyofasini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Muallif o'zi asarda aytib o'tgandek: "Boshqaruvchi inson, kim bo'lishidan qat'i nazar, hokimiyat tepasiga kelar ekan, u dastlab olijanoblik va fidoyilikni maqsad qiladi. Borgan joyini bog' qiladimi, gulzor qiladimi, lolazor qiladimi yoki umuman hech narsa – bunisi endi boshqa masala...". Umuman olganda, roman Oshno va Nazar Yaxshiboyevning umr yo'li va xatolari orqali bizga katta saboq beradi! Murod Muhammad Do'stning ushbu asari Hamza nomidagi davlat mukofotiga sazovor deb topilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Муро́д Муҳаммад Дўст. Лолазор. Роман. Тошкент, Шарқ. 1998. 560 б.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umarali-normatov-murod-muhammad-dost-haqida.html>
3. <https://oyina.uz/uz/article/2339>
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/murtazo-qarshiboy-onglanmagan-taqdir-talqini-murod-muhammad-dost-lolazor.html>
5. [https://zamin.uz/uz/jamiyat/44143-murod-muhammad-dust-yuksak darajada-fikrlaydigan-shahslar-bor-ekan-hammaeq-lolazor-bulib-ketmaydi.html](https://zamin.uz/uz/jamiyat/44143-murod-muhammad-dust-yuksak-darajada-fikrlaydigan-shahslar-bor-ekan-hammaeq-lolazor-bulib-ketmaydi.html)
6. https://arm.samdchti.uz/library/book_view/798
https://arm.samdchti.uz/library/book_view/798